

## ANVAR OBIDJON SHE'RIYATIDA ANTONIMLARNING O'RNI

Ozodbayeva Ruxsora

Urganch davlat universiteti talabasi

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada Anvar Obidjon she'riyatida antonimlarning qo'llanish xususiyati o'rganilgan. Badiiy asar tilida poetik individuallikni ta'minlash uchun ijodkorlar barcha til birliklaridan unumli foydalanishadi. Xususan, antonimlar shoir maqsadini ochib berishda asosiy vosita sanalishi ushbu maqolada o'z aksini topgan.

**KALIT SO'ZLAR:** antonimiya, antiteza, kontrast, kontekstual antonimlar.

Tilshunoslikda antonimlar nazariy jihatdan yetarlicha tadqiq qilingan. Antonimiya – so'z juftligida muayyan leksik ma'noning o'zaro qarama-qarshi bo'lishidir. Ya'ni o'zaro qarama-qarshi ma'noga ega so'z juftligidagi antonim deyiladi"<sup>1</sup>.

Tilda antonim so'zlarning mavjudligi, badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini taminlashda qulay vositalardan biridir. Mumtoz she'riyatda ham bu ko'p qo'llaniladigan vositalardan biri bo'lib, u tazod deb yuritiladi. Yevropa tilshunosligida bu san'at "antiteza" deyiladi. Antiteza – badiiy asrda bir-biriga zid ma'noli so'zlarni yonma-yon qo'llash, qarshilantirish san'atidir<sup>2</sup>.

Shoir va yozuvchilar voqelikni, narsa va hodisalarning farqli tomonlarini ko'rsatishda, bir-biriga qarama-qarshi qo'yib tasvirlashda kuchli stilistik vosita - antonimlardan o'rinli foydalanishadi. Bolalar shoiri Anvar Obidjon she'rlarida ham antonimlar ko'p qo'llangan bo'lib, ular xilma-xil ma'nolarni ifodalashga xizmat qilgan. Shoir antonimlarni turli voqea-hodisa, shaxs yoki predmetlarning xarakteristikasini berishda, lirik qahramonning ichki his-tuyg'ularini, ziddiyatlarini ifodalashda keng qo'llagan.

Shoir antonimlarni turli voqea-hodisa, shaxs yoki predmetlarning xarakteristikasini berishda, lirik qahramonning ichki his-tuyg'ularini, ziddiyatlarini ifodalashda keng qo'llagan. So'z turkumlari bo'yicha antonimlar belgi bildirgan

soʻzlar doirasida, ayniqsa, sifat va ravishlar orasida koʻp uchraydi: yaxshi-yomon, baland-past, tor-keng, qattiq-yumshoq, tez-sekin, oz-koʻp kabilarni sanab oʻtadigan boʻlsak Anvar Obidjon sheʼrlarida ham aynan shunga oʻxshash misollarga duch kelishimiz mumkin. Masalan, yangi-eski, rost-yolgʻon, katta-kichik, keng-tor va hokazo...

U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevlarning “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” darsligida antonimiyaning ikki xil turi koʻrsatilgan:

1.Lugʻaviy antonimiya – lugʻaviy birliklarning oʻzaro antonim boʻlishi: saxiy-baxil, ogʻir-yengil kabi. 2.Grammatik antonimiya – grammatik birliklarning oʻzaro antonim boʻlishi. Bu juda kam uchraydi: -dan,-ga (uydan-uyga) kabi. Morfemalar antonimiyasi, asosan, leksema yasovchilarga toʻgʻri keladi: -li, -ba (-bo), -siz, -be, -no kabi.

Lugʻaviy antonimlar oʻz ichida yana turlarga ajratiladi: leksik antonimiya, frazeologik antonimiya, leksik-frazeologik antonimiya kabi.

Anvar Obidjon sheʼriyatida leksik antonimiya eng koʻp qoʻllanilib, ijodkor **tun-erta, boy-kambagʻal, tiriksiz-yoʻqsiz, jannat-doʻzax** kabi antonimlardan oʻz fikr va gʻoyalarini ochishda unumli foydalana olgan:

Anvar Obidjon sheʼriyatida juda yorqin antonimlarni qoʻllaydi, bular tinglovchi va kitobxonlarni oʻziga jalb qilishga xizmat qiladi. Bunga misol qilib **“Qodiriyni eslab”** sheʼrida berilgan parchaga nazar soladigan boʻlsak:

Ruhingizga sigʻinganim choq,

His qilaman oʻzimni **ruhsiz**.

**Doʻst** qalbida **tiriksiz**,

Biroq —

**Gʻanim** uchun olamda yoʻqsiz. Parchasidagi “tiriksiz-yoʻqsiz” soʻzlari va “doʻst-gʻanim” soʻzlari oʻzaro antonimlikni hosil qilib kelgan.

“Men xudo emasman” sheʼrida ham aynan shu holat koʻzga tashlanadi.

Men xudo emasman,

Menga baribir,

Shart emas qarshimda bermog'ing javob.

O'zim vasl jannatin tilanib axir,

Ishq degan do'zaxda chekyapman azob. Ushbu parchada “jannat va do'zax” so'zlari o'zaro antonimlikni yuzaga keltirgan.

Shoir she'rlarida bunday antonimlar ko'plab uchraydi. Masalan: “Xabar sotuvchi” she'rida:

**Yangi** gaplar sotaman,

**Eski** gaplar ham.

Bolajonlar, keloqoling,

Qoldi juda kam .

Ushbu parchada “yangi va eski” so'zlarida o'zaro antonimlik ko'zga tashlansa,

Surishtirmang narxini,

Arzondan arzon.

Xo'rozqandga-**rost** xabar,

Pishloqqa-**yolg'on**

parchasida “rost va yolg'on” so'zlari o'zaro antonimlikni yuzaga keltirgan.

“O'rmonda ziyofat” she'rida:

Sher oshxona ochibdi

O'rmonda bugun,

**Yovvoyi va xonaki**

Hayvonlar uchun parchasida “yovvoyi va xonaki” so'zi o'zaro antonimiyani hosil qilgan. “G'alamis qo'shni” she'rida:

**Katta-kichik** qo'shnilar

Qilardi hurmat:

Qovog'ari-eng **qari** ,

Buzoqboshi-eng **yosh**.

Ushbu parchada “**katta-kichik**” va “**qari va yosh**” so'zlari o'zaro antonim bo'lsa, “Parvarda” she'rining

“Bilmasa ham yosh Bo'ri

Dunyoning **keng-torligin**,

Eshitgandi dunyoda-

Shirinliklar borligin.” parchasida esa “keng va tor” soʻzlari oʻzaro juftlashgan holda antonimlikni hosil qilib kelganligini, “**Pista**” sheʼrida berilgan ushbu parchada:

Jilmayganim

**Jilmaygan**,

Kinga yoqar

**Tumtaygan?** Ushbu misrada “**Jilmaygan va tumtaygan**” soʻzladi oʻzaro antonimlikni yuzaga keltirilgan boʻlib, “**Karam**” sheʼrida berilgan parchada ham shoirning antonimlar qoʻllash mahorati yaqqol namoyon boʻladi. Ushbu sheʼrda keltirilgan parchada

Ekilganman

Kech **kuzda**.

**Bahor** ham

Keldi tezda. “**kuz va bahor**” soʻzlari oʻzaro antonimlik hosil qilgan.

Shoir qalamiga mansub “**Yongʻoq**” sheʼrida berilgan parchada ham aynan “**bahor va kuz**” soʻzlarini ham antonim sifatida olish mumkin.

**Bahorda**

Toʻn bichaman,

Uni

**Kuzda** yechaman

“**Abdulhamid Choʻlponning tushimda oʻqigan sheʼri**” sheʼrida berilgan

“Bu yurt – onam va u **tun-u ertalab**

Qotilinga oʻchkor nigoh tashlaydi” parchasida ham **tun** va **erta** soʻzlari oʻzaro antonim sifatida keltiradi.

Anvar Obidjon lirikasida sheʼrlari bilan bir qatorda muxammaslari ham mavjud boʻlib ular ham antonimlardan foydalanish mahorati yaqqol koʻzga tashlanadi. “**Yovvoyi muxammaslar**” muxammasida ham antonimlardan samarali foydalangan. Bunga misol tariqasida:

“**Boyi** sotur shoxi ro‘mol, ishton-u ko‘ylak

Attorida surma, zira, sirg‘a-yu oynak,

**Kambag‘ali** munda turur sotgali to‘ngak,

To‘ngak osha o‘tdi kuchuk- og‘zida so‘ngak,

Qassob oni keldi quvib, ushladi shavvoz” parchasini oladigan bo‘lsak, bunda

“**boy va kambag‘al**” so‘zlari antonim bo‘lib kelgan.

Shoir voqelikni bir- biriga qarama-qarshi qo‘yib tasvirlashda leksik antonimlardan unumli foydalanib o‘ziga xos individual obrazlar yaratgan. Ba‘zan inson xarakterini, intim tuyg‘ularini ifodalashda ham antonimlardan foydalangan:

Ruhingizga sig‘inganim choq,

His qilaman o‘zimni ruhsiz.

**Do‘st** qalbida tiriksiz,

Biroq —

**G‘anim** uchun olamda yo‘qsiz.

Parchada “**do‘st va g‘anim**” so‘zlari antonim sifatida gavdalangan.

Anvar Obidjon she‘riyatida kontekstual antonimlar ham keng qo‘llangan. U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevlarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida kontekstual antonimlar haqida quyidagi fikrlar keltirilgan: “Leksik ma‘no bilan leksik qo‘llash orasidagi antonimlik munosabat kontekstual antonimiya deb nomlanadi. Bunday antonimiya har gal nutqning o‘zida voqe bo‘ladi, nutqdan tashqarida yo‘qqa chiqadi, ko‘pincha individual nutqqa xos bo‘ladi”.

Shoir she‘riyatida ham bolalarga xos o‘yinqaroqlik, shiddat va shijoat kontekstual antonimlar orqali ochib berilgan. Bu turdagi antonimlar shoir qalami ostida bolalarga xos sho‘xlik qanchalar totli saodat ekanligini haqqoniy aks ettirishga xizmat qiladi. Bunga misol tariqasida “**Mosh**” she‘rini oladigan bo‘lsak:

Men haqiqiy

Moshdirman.

Gohi **toshman**,

Gohi **osh**.

**“Panada turib”** she’rida berilgan parchaga nazar soladigan bo‘lsak

Musht do‘layib

**Chigirtka,**

Do‘q urardi

**Burgutga:**

Berilgan parchalarda **“tosh va osh”, “chigirtka-burgut”** so‘zlari kontekstual antonimlikning yaqqol namunasi qilib keltirgan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, shoir o‘z maqsadlarini ochib berishda, his-tuyg‘ularini ifodalashda antonimlardan mohirona foydalana olgan. Bolalar uchun qiziqarli va tushunarli qilish maqsadida shoir o‘z she’rlarini sodda va ravon tilda, aniq, qisqa va lo‘nda shaklda yaratibgina qolmasdan, qiziqarli tarzda yosh kitobxonga yetkazishga ham harakat qilgan va buning uddasidan chiqqan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirtojiyev M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2004.
2. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning linvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy til. – Toshkent: Universitet, 2006.
4. Anvar Obidjon. O‘g‘irlangan pahlavon. – Toshkent: Cho‘lpon, 2015.
5. Anvar Obidjon. Qorinbotir. – Toshkent: Cho‘lpon, 2011.

Web-saytlar:

1. <https://www.ziyouz.com/kutubxona>
2. <https://tafakkur.net/>